



BO'LAJAK PEDAGOGLARNING AXLOQIY SIFATLARINI TARBIYALASHDA ISLOM TA'LIMOTI NAZARIYALARI

Muallif: Mustanov Urol Abdinazarovich¹

Affiliatsiya: mustaqil tadqiqotchi¹

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14407864>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada bo'lajak pedagoglarni axloqiy sifatlarini tarbiyalashda islam ta'lilotining tutgan o'rni va ahamiyati haqida fikr-mulohazalar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: islam, ta'lilot, musiqa, sifat, axloqiy tarbiya, vosita, daraja, diniy ta'lilot.

Ta'lim va tarbiya sohasi shunday bir jarayonki, uni tashkil etishda har bir millat va xalq e'tiqot qilayotgan dinning ta'sir kuchi juda katta vositadir. Faqat ana shu ta'sir kuchdan to'g'ri va oqilonan foydalanish kerak bo'ladi. Buning uchun bo'lajak pedagoglarni axloqiy sifatlarini tarbiyalashda ularni turli darajadagi qiyin, oson, yengil va murakkat hayot sharoitlariga ko'niktirish zarur bo'lgan nuqtai nazarga asoslanishi shart.

Islam ta'lilot vositasida bo'lajak pedagoglani axloqiy sifatlarini tarbiyalash masalasi shariatning xatti-harakati (musulmon qonuni), diniy odatlar, xarakterni tarbiyalashda foydali asarlar: etnografiya, tarix, pedagogika, arifmetika, geometriya, barcha matematik bilimlar.

Yana bir Sharqning ulug' olimi G'azzoliy insonning fe'l-atvori va xulq-atvoridagi barcha o'zgarishlarning sababini faqat va faqat tarbiyada deb ko'radi. Albatta, nafaqat bo'lajak pedagoglarni jismoniy, ma'naviy va axloqiy tarbiya bir-biriga o'zaro ta'sir qiladi. Ammo u, "yoshlarni tarbiyalashda asosiy e'tibor tarbiyani xalqning urf-odatlari, an'ana va qadriyatlarini orqali olingan xatti-harakatlar keyinchalik insonning tabiiy odatiga aylanadi, insonning tana a'zolari va ruhi barcha mukammallik va taraqqiyotni faqat ta'lim olish orqali amalga oshiradi" degan g'oyalarni ilgari suradi.

Bo'lajak pedagoglarni axloqiy sifatlarini tarbiyalash jarayonida yosh avlodni kelajakdagi go'zal hayotga tayyorlash, ularni ma'naviy va axloqiy jihatdan takomillashtirishdan iborat. Biz talabalarga awvalab bor, hayotni o'rganish orqali o'z hayotini yaxshiroq tartibga solishga yordam beradigan san'at va hunarmandlikning ham nazariy asoslarini ham usullarini o'rgatish orqali dehqonchilik, bog'dorchilik, chorvachilik; 2) tikuvchilik va to'qimachilik; 3) binolarni qurish va jihozlash; 4) temirchilik, mashinasozlik; 5) oshpazlik, 6) ritorika, 7) ta'lim (pedagogika), 8) ma'naviyat, siyosat.

Bo'lajak pedagoglarni islam ta'liloti vositasida axloqiy sifatlarini tarbiyalashda o'quv dasturi asosida tashkil etish maqsadga muvofiq. Dunyoning ko'pgina xorijiy oliy ta'lim tashkilotlarida o'quv dasturlari (sillabbus)lar talabalar va professor-o'qituvchilarning bilim imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda shakllantiriladi. Aynan



davlat tomonidan qo'yilgan talablar asosida belgilangan bilimlarni o'zlashtirish mexanizmlari mavjud emas. Bunday mexanizm O'zbekiston Respublikasi ta'limi tizimida mavjudligi, bu – mamlakatning iqtisodiyot tarmoq sohalarini birdek malakali kadrlar bilan ta'minlashning pedagogik zarurati muammolarini yechimini ta'minlaydi.

Tadqiqotni o'rganish jarayonida bo'lajak pedagoglarning axloqiy sifatlarini tarbiyalashda "ta'lim – bu san'at", bo'lajak pedagoglarning axloqiy sifatlarini tarbiyalashda ta'limning kuchiga ishonish lozim", "bo'lajak pedagoglarning axloqiy sifatlarini tarbiyalashda mashq va taqlidni tarbiyalash", pedagogika – amaliy axloq, axloq qoidalari pedagogikaning asosi ekanligi", "o'qituvchilarning nazariy va amaliy qarashlarida pedagogik siyosatning birlashadi" degan tamoyillarga asoslanishi nazarda tutilgan.

Ushbu xususiyatlardan Islom olamida musulmonlarning Sharq pedagogikasi asosiy yo'nalishlaridan hisoblanadi. Bu kabi tarbiyaga san'at va hunarmandchilik sifatida qarash kabi g'oyalar G'arb pedagogikasida birinchi marta Yan Amos Komenskiy (1592-1670) tomonidan ko'tarilgan. Keyinchalik bu kabi qarashlar XIX asrda Amerikada, Amerikadan rus pedagogikasi dunyosiga kirib keldi. XX asrda yashab o'tgan amerikalik pedagog Munsterberg "pedagogika – texnika", ya'ni "pedagogika – inson ruhiyatiga ta'sir qilish texnikasi" sifatida qaraydi.

Sharq pedagogikasi, musiqiy pedagogika, musiqiy psixologiyasi asoschisi, musiqashunos, etnomusiqashunos Farobiyning qarashlarida siyosat va pedagogika bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir. Uning pedagogik qarashlarida "pedagogika – davlat fanining bir qismi va davlat siyosati bo'limlaridan biri"dir. XX asrning mashhur o'qituvchisi Kershenshtayner pedagogikani ideal davlat bilan bog'lab, shunday tushunadi. "Pedagogikani – davlat ishining bir qismi sifatida ko'rib chiqqan jamiyat "ideal davlat" deb tushunadi. Shunday qilib, o'tkazilgan tadqiqot xulosa chiqarishga imkon beradi:

Sharqda juda mustahkam asosda qurilgan o'z pedagogika mavjud bo'lgan. Ushbu pedagogikaning asosi butun yunonlar, rimliklar, forslar, hindular, turkiylar va xitoy kabi xalqlarning madaniyatlaridan olinganidek, uning pedagogikasining asosi ham ulardan olingen bo'lib, Islom dunyosi va mafkurasi bilan kuchli singdirilgan, qo'shimchalar va o'zgarishlar, yangi nazariyalar tufayli Sharqning musulmon-islom pedagogikasiga aylangan Sharq olimlari va ziyoliylari tomonidan yaratilgan ta'limotga aylandi.

Sharq pedagogikasining asosiy maqsadi: odamlarni Islom ruhida dunyoviy hayotga tayyorlash. Ushbu maqsad, shuningdek, har bir bo'lajak pedagog shaxsining "abadiy baxt" ga erishishi uchun zarur bo'lgan tamoyillarni kashf etishidir.

Bo'lajak pedagoglarni islom ta'limoti vositasida axloqiy sifatlarini tarbiyalashda tadqiqot jarayonida bir qator pedagogik zaruratlarni ko'rib chiqish masalasi hal etildi. Jumladan: evolyusiya va taraqqiyot qonuni, tarbiya kuchiga cheksiz ishonch va axloqiy tarbiyaning inson hayotiga ta'siri; Sharq pedagogikasi avtoritar; Sharq pedagogikasida axloqiy sifatlar masalasi juda muhim o'rinni tutadi; Sharq pedagogikasida ma'naviy, jismoniy, aqliy, axloqiy tarbiya – bo'lajak pedagog tarbiyasi sifatida qarash; Islom pedagogikasining asosiy didaktik qoidasi: o'qitish, amal qilish va empirik tarzda amalga oshirilishi kerak; Islom pedagogikasi ta'lim va tarbiyasi nazariyasini yaratdi va didaktika va metodikaning asoslarini ochib berdi.

Bu borada buyuk olim, tibbiyat qonunlari asoschisi Ibn Sino g'oyalari nihoyatda katta ahamiyat kasb etadi. Uning fikricha "o'qituvchilarni tanlash ularning ilmiy, diniy, dunyoviy bilimiga katta e'tibor berish kerakligi, "bola olti yoshga to'lganida, uni o'qituvchiga topshirish kerakligi"ni ta'kidlaydi. Ibn Sino Islom dini e'tiqot qiluvchilaridan bo'lib, uning fikricha "o'qituvchi dindor bo'lishi kerak, shunda u halol, dono, adolatl, ozoda, odobli, axloqiy sifatlari bo'lishini talab qildi". U yosh avlodni tarbiyalayotgan o'qituvchilar oldida bir qator talablarni qo'yadi. Uning ta'kidlashicha, tana va ruh o'rtasidagi yaqin bog'liqlik, ruhning tanaga va tananing ruhga ta'siri tarbiyachilarini bolalarga juda ehtiyotkorlik bilan yondashishga majbur qiladi.

Albatta, xuddi shu o'rinda ta'kidlash jlizki, Ibn Sinoning ilmiy qarashlarida islom dinining muqim qoidalaridan ta'lim va tarbiyada foydalanish bo'lajak pedagoglarni axloqiy tarbiyalashda muhim mezoni sifatida qarash, pedagogik zaruratinib belgilaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Абдурахимов К. Нравственное воспитание во взглядах Мирсайида Али Хамадони Д., 1984 г.

Саидов С.М. Культ святых и особенности его проявления в Исламе. Махачкала, 1997г. - 23.

Файзов С.Ф. Ислам в Поволжье 8-20 века. М., 1999 г.